

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-mayda (01/23-104-sonli xati) tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi”ning 8-bandida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan

## **“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida “Eng yaxshi insholar” tanlovining**

### **NIZOMI**

#### **1. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-mayda (01/23-104-sonli xati) tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi”ning 8-bandida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida “Eng yaxshi insholar” tanlovida universitetda tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadilar. Tanlov “Eng yaxshi insholar” nominatsiyasida o‘tkaziladi.

3. Tanlovning universitet bosqichini tashkil etish va o‘tkazish jarayoni universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor va bo‘lim boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

#### **2. Tanlovning maqsad va vazifalari**

4. Tanlovning asosiy maqsadi – talabalar o‘rtasida Korrupsiya to‘g‘risidagi qonun mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” tamoyili asosida yoshlarda huquqbuzarlik, korrupsiyaga, jinoyatchilikka qarshi toqatsizlik ruhini shakllantirish, qonunlarni hurmat qilishga, burch va majburiyatlarini vijdonan bajarishga o‘rgatishdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta’minlash, ularni turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolishini oldini olish

- Talabalarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy choratadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ta'sirchanligini oshirish
- Talabalarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni har tomonlama rivojlantirish
- Talabalarda yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish
- Yosh avlodni har tomonlama etuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, otanasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash
- Talabalarning «Yoshlar korrupsiyaga yo'q deydi!» mavzusida «Eng yaxshi insholar» tanlovi ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka etkazish

### **3. Tanlovni o'tkazish va baholash**

6. Talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi. Zarur hollarda Hakamlar hay'ati tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

### **4. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

7. Insholar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi (ilmiy, rasmiy, badiiy kriteriyalarga mos va mavzu dolzarbligiga ko'ra)
- Ijodiy ishlarining statistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi
- Mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning bildirilganligi
- Mavzuni yoritishda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi
- Mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalanganligi
- Mavzuga oid dolzarb masalalar, ularning echimlari to'g'risida takliflar keltirilganligi

8. Taqdim etiladigan insholar hajmi 8-10 dan 15-20 betgacha bo'lishi mumkin. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 70 ball)

### **5. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

9. Universitetda insholar tanlovi bo'yicha g'olib bo'lgan 1-o'rinni egallagan talabaning hujjatlari (bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari va 10x15 hajmdagi fotosurati elektron shaklda)ni va qo'lyozmalarini PDF shaklda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etiladi.

10. Tanlovga taqdim etiladigan insholar (o'zbek, rus yoki ingliz tillarida yozilishi mumkin) yozma matnlar ilmiy, texnik, statistik tahrir qilingan bo'lishi shart. Yozma materiallarning 1-nusxasida talabalarning o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi, 2-nusxasida o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi ko'rsatilmaydi (Ushbu band Universitetda insholar tanlovi bo'yicha g'olib bo'lgan 1-o'rinni egallagan talabaga tegishli).

### **6. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

11. Tanlov g'oliblari faxriy yorliqlar va 1-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 2 barobari, 2-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1.5 barobari, 3-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1 barobari miqdorida pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-mayda (01/23-104-sonli xati) tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi”ning 8-bandida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan

## **“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi videorolik” tanlovining**

### **N I Z O M I**

#### **1. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-mayda (01/23-104-sonli xati) tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi”ning 8-bandida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi videorolik” tanlovida universitetda tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadilar. Tanlov “Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasida o‘tkaziladi.

3. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kompleans nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **2. Tanlovning maqsadi va vazifalari**

4. Tanlovning maqsadi talabalar o‘rtasida korrupsion holatlarning oldini olish, ularda korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish, o‘ziga kelayotgan yoshlarning yomon illatlarga qarshi bo‘lgan sog‘lom fikrlarini rivojlantirish, ular ongida korrupsiyaning eng zararli oqibatlari haqida tushunchalar uyg‘otish, “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” tamoyili asosida yoshlarda huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi toqatsizlik ruhini shakllantirish, qonunlarni hurmat qilishga, burch va majburiyatlarini vijdonan bajarishga o‘rgatish, talabalarning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli talabalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta’minlash, ularni turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolishning oldini olish

- Talabalarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarining ta’sirchanligini oshirish

- Talabalarni har tomonlama etuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli insonlar qilib tarbiyalash

- Talabalarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni har tomonlama rivojlantirish

- Talabalarda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mustahkam immunitetni shakllantirish

### **3. Tanlovni o'tkazish va baholash**

6. Talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi. Zarur hollarda Hakamlar hay'ati tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

### **4. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

7. Tanlovga taqdim etiladigan videoroliklar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

-g'oyaning originalligi va dolzarbligi, videorolik tanlov talablariga javob berishi hamda unda aks ettirilgan voqea-hodisaning ahamiyati to'liq ochib berilishi kerak;

-videorolik tanlov mavzusiga hamda tanlov oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak;

g'oyaning yangiligi va antiqaligi, videorolik syujeti original bo'lib, boshqa mvideoroliklarning syujeti va g'oyasini takrorlamasligi kerak

-videorolik baholanishi jarayonida musiqali fon, video effektlardan foydalanganligi, tomoshabinda tuyg'u va tasavvur uyg'ota olishi, kreativlik, ishning uslubiy jihatdan o'ziga xosligi, badiiy va texnik darajasi, efirga uzatish imkoniyati ham inobatga olinadi.

8. Taqdim etiladigan videoroliklar soni 2 tagacha, hajmi 200 megabaytgacha bo'lishi mumkin.

9. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 50 ball).

10. Videoroliklarga qo'yiladigan talablar:

- davomiyligi 3 daqiqa

- formati MPEG-4

- lavha formati 720 r(1280x720) yoki 480 r(854x480)

- hajmi 40 megabaytgacha bo'lishi kerak.

11. Videorolik tasvirida muallifning bevosita ishtiroki shart emas.

12. Videorolikni suratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur va uskunalardan foydalanish ishtirokchining ixtiyoriga havola etiladi.

13. Videorolik janri(reportaj, videoklip, animatsion syujet va boshqalar)ni ishtirokchining o'zi belgilaydi.

14. Videorolikda yoritilayotgan mavzu nomi ko'rsatiladi, muallif, fakultet nomi, o'qish kursi ko'rsatilishi qat'iy taqiqlanadi.

### **5. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

15. Tanlov g'oliblari faxriy yorliqlar va 1-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 2 barobari, 2-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1.5 barobari, 3-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1 barobari miqdorida pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, talabalarning eng sara ijodiy ishlari universitet rasmiy sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritiladi.